

SHAXSNING DAXLSIZLIK HUQUQI VA SHAXSIY MA'LUMOTLAR TIZIMIDA UNUTILISH HUQUQINING O'RNI

Mansurova Nilufar Muxsinjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

zahratushshams@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671638>

Annotatsiya. Tezisdan raqamlashtirish davrida O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning huquqiy asoslari o'rganilgan. Unda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni hamda Yevropa Ittifoqining Umumiy Ma'lumotlarni Himoya qilish Reglamenti (GDPR) tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishning istiqbolli yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tezisdan, sun'iy intellekt texnologiyalari va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari ham muhokama etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasida muhim qadamlar qo'ygan bo'lsa-da, qonunchilikni yanada takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro tajribani o'rganish orqali milliy tizimni rivojlantirish zarur.

Kalit so'zlar: Shaxsga doir ma'lumotlar, ma'lumotlarni himoya qilish, O'zbekiston qonunchiligi, GDPR, huquqiy asoslar, ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt, shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun, ma'lumotlarni qayta ishlash, transchegaraviy ma'lumotlar uzatish.

Zamonaviy axborot jamiyatida shaxsiy ma'lumotlarning ko'lamli yig'ilishi, qayta ishlanishi va uzatilishi insonning daxlsizlik huquqiga nisbatan yangi muammolar tug'dirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida har bir shaxsning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar doimiy ravishda turli elektron tizimlarda saqlanib, qayta ishlanmoqda. Bu holatda shaxsning o'z shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorat huquqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi insonning tabiiy va ajralmas huquqlaridan biri sifatida tan olingan bo'lsa-da, raqamli muhitda bu huquqning amaliy amalga oshirilishi murakkab masalalar bilan bog'liq. Ayniqsa, bir marta elektron tizimga kiritilgan shaxsiy ma'lumotlarning abadiy saqlanib qolishi va ularning noto'g'ri foydalanilishi xavfi ortib bormoqda.

Ushbu kontekstda "unutilish huquqi" tushunchasi alohida e'tibor talab etadi. Bu huquq shaxsga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini ma'lum sharoitlarda elektron tizimlardan o'chirib tashlash imkoniyatini beradi. Unutilish huquqi nafaqat shaxsiy daxlsizlikni himoya qilish vositasi, balki raqamli jamiyatda insonning qadr-qimmatini ta'minlaydigan muhim mexanizmdir.

Hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Biroq, unutilish huquqining huquqiy tabiatini aniqlash, uning boshqa huquqlar bilan o'zaro munosabatini belgilash va amaliy amalga oshirish mexanizmlarini yaratish masalalari hali ham dolzarb qolmoqda.

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti kuchayib borgan sayin, ma'lumotlarning huquqiy qadr-qimmati, ularni qonuniy hujjatlar vositasida saqlash va himoyalashga qaratilgan e'tibor

ham tobora ortmoqda. Bugungi kunda raqamli ma'lumotlar asosiy o'rin tutadigan dunyoda insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Ma'lumot nima? Ma'lumot – uzoq vaqt mobaynida kishining o'rganish natijasida hosil qilgan bilimlari yig'indisi hisoblanadi. Shaxsga doir ma'lumot esa, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotdir¹. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq turlicha yondashuvlar XIX asrning oxirida paydo bo'lgan. Internet huquqi bo'yicha tadqiqotchi Viktor Mayer Schoenbergning fikricha, yevropaliklarning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga bo'lgan qiziqishi XX asrga borib taqaladi².

Dunyo miqyosida ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarini tartibga soluvchi qonunchilik doirasini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bu global tendensiyadan chetda qolmay, 2019yilda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Mazkur maqolada O'zbekiston qonunchiligida belgilangan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash huquqiy asoslari hamda xalqaro amaliyot, xususan, Yevropa Ittifoqining Umumiy Ma'lumotlarni Himoya qilish Reglamenti (GDPR) doirasidagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Milliy qonunchilimizda shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlashning huquqiy asoslari quyidagi qonun hujjatlari orqali amalga oshiriladi

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash bilan bog'liq eng oliy normativ huquqiy hujjat hisoblanib, uning 31-moddasida "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega" ekanligi haqidagi qoida belgilab qo'yilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 2-iyul, O'RQ-547): Bu sohadagi asosiy maxsus qonun hisoblanadi. Qonunda shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, shuningdek u ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishning asosiy prinsiplarini belgilaydi; Subyektning (ma'lumotlar egasining) huquqlarini (o'z ma'lumotlari bilan tanishish, ularga tuzatish kiritish, qayta ishlashga rozilik berish yoki uni chaqirib olish, noqonuniy ishlov berish ustidan shikoyat qilish va b.) mustahkamlaydi; Mulkdor (ma'lumotlar bazasiga egalik qiluvchi) va operatorning (ma'lumotlarga ishlov beruvchining) majburiyatlarini belgilaydi; Ma'lumotlarni

1 Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi 547-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni. 02.07.2019-yil. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-4396419>

2 "The Solace of Oblivion" By Jeffrey Toobin <https://www.newyorker.com/magazine/2014/09/29/solace-oblivion>

himoya qilish talablarini, jumladan, transchegaraviy uzatish shartlarini tartibga soladi; Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

3. Axborotlashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2003-yilda qabul qilingan mazkur qonunda Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlashning ilk huquqiy asoslari O'zbekiston respublikasining axborotlashtirish to'g'risidagi qonunida o'zf aksini topgan bo'lib, ushbu qonunning 13-moddasida Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma'lumotlar to'g'risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga kirishi belgilab qo'yilgan³. Shuningdek, qonunning 14-moddasida yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma'lumotlarning to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega ekanligi va bu huquq faqatgina qonun bilan cheklanishi ko'rsatilgan.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun" talablari buzilgan taqdirda Jinoyat kodeksining 141²-moddasida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi: O'zbekiston

Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish, saqlash, o'zgartirish, tarqatish yoki yo'q qilish, jumladan internet orqali, shuningdek belgilangan texnik va ma'lumotlar bazasi talablariga rioya etmaslik qonunbuzarlikni tashkil etadi. Oddiy holatlarda, agar avval ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lsa, bu qilmish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100-150 baravari miqdorida jarima, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Agar qilmish bir guruh shaxslar tomonidan, takroran, g'arazli niyatlarda, xizmat mavqeyidan foydalangan holda yoki og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holda sodir etilsa, jazo yanada og'irlashib, 150-200 baravar jarima, 2-3 yil axloq tuzatish ishlari, 1-3 yil ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab o'tilgan⁴.

5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-1-moddasida Shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslikning⁵ huquqiy oqibatlari keltirib o'tilgan.

6. Vazirlar Mahkamasining Vazirlar Mahkamasining "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va u bilan tasdiqlangan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risidagi Nizom hisoblanadi.

3 Axborotlashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni.

4 O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-111453#-262300> ⁵

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Elektron manba: <https://lex.uz/acts/->

Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga binoan, uning ishtirokchilari subyekt va operator hisoblanadi. Shuningdek, subyektning vakili, mulkdor va uchinchi shaxslar ham ishtirokchi sifatida ish yuritish mumkin. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish huddi shu qonunning 10-moddasiga ko'ra, mazkur jarayon subyektlari tomonidan o'z vazifalarini bajarish uchun zarur hamda yetarli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bilan shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish tartibi va prinsiplari mulkdor yoki operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish esa, subyektning murojaatiga binoan, operator tomonidan amalga oshiriladi⁵.

Yevropa ittifoqi hududida mazkur masala alohida norma bilan tartibga solinib, u GDPR – General data protection regulation -Yevropa ittifoqining “Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish haqida” gi 2018- yil 25-maydagi reglamenti (GDPR) shaxsiy ma'lumotlarning qonuniy, adolatli va shaffof tarzda to'planishi va ishlatilishini, shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazoratni ta'minlashga qaratilgan⁶. Uning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Yevropa fuqarolariga o'z shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq kuchliroq nazorat va huquqlarni berish
- Ma'lumotlarga ishlov berish tizimlarini soddalashtirish va yagona qonunchilik asosida birlashtirish
- Xalqaro miqyosda ma'lumotlar uzatilishini tartibga solish
- Tashkilotlar uchun shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash majburiyatlarini aniq belgilashdan iborat.

GDPR 4-moddasida shaxsga doir ma'lumot tushunchasiga ta'rif berib o'tilgan bo'lib, unda Yevropa o'zining yondashuvini bayon etgan. Unga ko'ra “shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beradigan har qanday ma'lumot – shaxsga doir ma'lumot deb hisoblanadi. Bir shaxsni bevosita yoki bilvosita boshqa shaxslardan ajratish imkonini beradigan ma'lumot ham shaxsga doir ma'lumotlardir. Misol uchun, ismi, identifikatsion raqami, manzilga oid ma'lumotlar, bundan tashqari aynan o'sha shaxsgagina tegishli bo'lgan faktorlar, masalan jismoniy, psixologik, genetik, diniy , iqdisodiy, madaniy va ijtimoiy jihat shaxsga doir ma'lumotlarning tabiatini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Umuman olganda, shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan Yevropa qonunchiligidan ko'ra hech qaysi davlat qonunchiligi aniqroq va chuqurroq emas. Shu bilan birgalikda, shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash psinsiplari sifatida “qonuniylik”, “adolatlilik”, “shaffoflik” keltirib o'tilgan. Ammo, shaffoflik va adolatlilik prinsiplari ustida turli xil kelishmovchiliklar, turfa xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ma'lumotlarni nazorat qilishga oid davlat siyosatini ham tiyib turish ushbu qonunchilik normasida nazarda tutilgan⁷.

Mazkur masalada bugungi kunda eng dolzarb masalalardan yana biri sun'iy intellekt va shaxsga doir ma'lumotlar masalasidir. Sun'iy intellekt qurilmalarining bevosita shaxsga doir ayrim ma'lumotlariga bevosita egalik qilishi kelajakda katta muammolarni keltirib chiqarishi

5 Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi 547-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni. Elektron manba:

<https://lex.uz/docs/-4396419>

6 GDPR EXPLAINED: The 6 Legal grounds for Processing Personal Data LAWFULLY: [GDPR EXPLAINED: The 6 Legal grounds for Processing Personal Data LAWFULLY - The Data Privacy Group](#)

7 Turdibekov Jamshid Qahramon o'g'li// “Shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilishda fuqaroviy-huquqiy yondashuv” BMI// TDYU, 2023-yil, 28-bet

mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi so'nggi davrda yangi bosqichga ko'tarildi. "Dipfeyk" texnologiyasi, ya'ni neyron tarmoqlar yordamida ishlab chiqariladigan va asl materiallardan ajratib bo'lmaydigan darajadagi foto, audio va video materiallar yaratish hamda ovoz klonlash imkoniyatini beruvchi ilg'or texnologik vositalar o'zining mukammallik cho'qqisiga erishdi. Bu esa o'z o'rnida shaxsiy ma'lumotlarni yanada xavf ostida ekanini bildiradi. Sababi bu kabi tizimlar tomonidan to'plangan barcha ma'lumotlar saqlanadi va chat-botning keyingi avlodiga o'tkaziladi. Bunda tizimga tasodifan yuklangan maxfiy ma'lumotlarni o'chirish imkonsiz sanaladi. Shu bois mazkur neyrotarmoqlardan foydalanishda, ayniqsa shaxsiy ma'lumotlarni yuklashda juda ehtiyotkorlik talab etiladi. Aslini olganda, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish xavfi bo'lgan har qanday dastur, ilova ishga tushirilishdan oldin, "Privacy policy" – "Maxfiylik siyosati" ga foydalanuvchining rozi yoki rozi emasligi so'raladi. Unga rozi bo'lish orqali esa foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini qayta ishlanishiga rozilik bildiradi.

GDPR da ham eng asosiy jihat foydalanuvchining roziligi sanaladi, shu bois qonunga zid vaziyatlar yuzaga kelganda dastur ishlab chiqaruvchilari har qanday javobgarlikdan ozod qolishlari mumkin bo'ladi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni va Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti o'rtasida muhim o'xshashliklar mavjud. Har ikkala qonunchilik ham shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning zamonaviy talablari va tendensiyalarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashning huquqiy asoslari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ma'lumotlarni himoya qilish sohasida xalqaro standartlarga muvofiq qonunchilik tizimini shakllantirishda muhim qadamlar qo'ygan. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun GDPR doirasidagi asosiy yondashuvlarni o'zida aks ettiradi, bu esa O'zbekistonning global raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvi va fuqarolar huquqlarini himoya qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston qonunchiligini yanada takomillashtirish uchun imkoniyatlar mavjud. Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro tajribani o'rganish orqali milliy tizimni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish nafaqat fuqarolar huquqlarini ta'minlash, balki O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi, xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish uchun ham muhimdir. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // <https://lex.uz/docs/-35869>

3. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. // <https://lex.uz/acts/-82956>
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. // <https://lex.uz/docs/-111453>
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. // <https://lex.uz/acts/-97664>
6. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-oktabrdagi №916 sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi Qarori.
7. Umumiy Ma’lumotlarni Himoya qilish Reglamenti (GDPR). // <https://gdpr-info.eu/>
8. Turdibekov J. Q. “Shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilishda fuqaroviy-huquqiy yondashuv” BMI. TDYU, 2023-yil.
9. Toobin J. “The Solace of Oblivion”. // The New Yorker, 2014.